



## YORITISH VA YORUG'LIK DARAKCHILARINI ISHLATISHNI DIAGNOSTIKALASH TUSHUNCHALARI

*Gulasal Aliyeva*

*Farg'onan viloyati Oltiariq tumani 2-sont kasb-hunar maktabi I.CH.T.U.*

*+998331301898 ziyodakenjayeva5@gmail.com*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada yoritish va yorug'lik darakchilarini ishlatishni diagnostikalash tushunchalari batafsil yoritilgan. Yorug'lik asbobining optik sistemasi lampa, nur qaytargich va nur tarqatgichdan iborat

**Kalit so'zlar;** Yoritgich, yorug'lik, gabarit, optik sistemasi, harakat havfsizligi, yorug'lik asboblari, lampa, avtomobil faralari.

**Annotation;** this article covers in detail the concepts of diagnostics of the use of lighting and light Drapers. The optical system of the light instrument consists of a lamp, a light reflector and a light diffuser

**Keywords;** illuminator, light, gabarite, optical system, motion security, light asbb, lamp, car headlights.

Avtomobillarning harakat xavfsizligi, ayniqsa kunning qorong'i qismida va ko'rinish yomon bo'lgan hollarda, ko'p jihatdan yorug'lik asboblarning holati va tavsifnomasiga bog'liq. Yorug'lik asboblari yo'lni yoritish, avtomobilning gabarit o'lchamlari hakida ma'lumot berish, haydovchining mo'ljallagan yoki amalga oshiraetgan harakati hakida darak berish, davlat raqami, kabina, kuzov saloni, nazorat-o'lchov asboblari, bagajnik va kapot ostini yoritish uchun xizmat qiladi.

Avtomobillarning yorug'lik asboblari yoritish va yorug'lik darakchilaridan tashkil topgan. Yorug'lik asbobining optik sistemasi lampa, nur qaytargich va nur tarqatgichdan iborat.

Lampa yorug'lik manba vazifasini bajaradi. Nur qaytargich paraboloid shaklida bo'lib, lampadan kichik burchak ostida chiqqan yorug'lik oqimini to'playdi va optik o'q bo'ylab yo'naltiradi. Tinik materialdan tayyorlangan, ichki yuzida linza va prizmalarga ega bo'lgan nur tarqatgichda yorug'lik oqimi vertikal va gorizontal tekislik bo'yicha qayta taqsimlanadi.

Uzoq vaqt davomida faralarning eng keng tarqalgan turi amerika lampa-farasi bo'lib keldi. Uning qismlarga ajralmaydigan optik elementi shishadan tayyorlangan va bir-biriga kavsharlangan nur qaytargich va nur tarqatgichdan iborat bo'lib, uning ichki bo'shilg'i inert gaz bilan to'ldirilgan. Nur tarqatiachning ichki qismiga bitta yoki ikkita cho'g'lanish tolasi joylashtirilgan. 50 yillardan boshlab Yevropada metal shishali optik elementlar keng tarqalib, ularda yorug'lik manbaini almashtirish mumkin bo'ldi. Tok



manbai sifatida oddiy yoki galogen lampalar ishlatilib, ular metall nur qaytargichdagi maxsus uyachaga o'rnatildi.

Yorug'lik va yorug'lik signallari moslamalarini o'rnatish uchun transport vositasini tasdiqlash to'g'risidagi ariza tovar belgisi egasi yoki uning vakolatli vakili tomonidan amalga oshiriladi. Illova paytida transport vositasi turiga oid barcha xususiyatlar, shuningdek ishlab chiqaruvchi tomonidan yoritish va yoritish uskunalarini uchun mo'ljallangan qurilmalar ro'yxati, umuman yoritish va yorug'lik signalizatsiya uskunalarining chizilgan rasmlari va transport vositasidagi turli xil qurilmalarning joylashuvi ko'satilgan diagrammalar keltirilgan.

Avtomobilarning elektr jihozlarini quyidagi asosiy funktional sistemalarga bo'lish mumkin:

1. Elektr ta'minot tizimi (generator, kuchlanish relesi, akkumulyator batareyasi).
2. Ichki yonuv dvigatelini ishga tushirish tizimi (startyor, akkumulyator batareyasi, ishga tushirishni yengillatuvchi moslamalar).
3. O't oldirish tizimi (tok manbai, o't oldirish g'altagi, uzgich-taqsimlagich, tranzistor kommutatori, o't oldirish shamlari);
4. Nazorat-o'lchov asboblari va diagnostika tizimi (temperatura, bosim sezgich va ko'rsatgichlari, taxometr, spidometr, darak beruvchi lampalar va boshqa).
5. Yoritish va xabar berish tizimi (bosh yoritish faralari, avtomobil burilishi va to'xtashini ko'rsatuvchi chiroqlar, oldingi va orqadagi fara osti chiroqlari va xokazo).
6. Qulaylik yaratuvchi asboblar tizimi (oynatozalagichlar, isitkich elektrdvigatellari, konditsionerlar, oyna ko'targichlar va hokazo).
7. Dvigatel va transmissiyani avtomatik boshqarish tizimi.
8. O'tkazgichlar va kommutatsiya jihozlari.

Generator, startyor, o't oldirish apparatlari va nazorat-o'lchov asboblarning sezgichlari bevosita dvigatelga, qolgan jihozlar esa avtomobil kuzovi va shassisining tegishli joylariga o'rnatiladi.

Avtomobilni ishlatish jarayonida doimo ulab qo'yiladigan (yoritish, o't oldirish, nazorat-o'lchov asboblari va xokazo) yoki qisqa, lekin tez-tez ishlatiladigan (tormozlanish yoki burilishni ko'rsatuvchi yorug'lik darakchilari) iste'molchilar tokni umumiylan zanjirdan oladi. Dvigateli ishga tushirish vaqtida katta tok (bir necha yuz amper) iste'mol qiladigan startyor, kesimi ancha katta bo'lgan o'tkazgich bilan bevosita akkumulyator batareyasiga ulanadi.